



OILADAGI GENDER ZO'RAVONLIKNING RUHIYOTGA TA'SIRI VA UNI BARTARAF ETISH OMILLARI

Maxsudova Mo'tabar
Namangan davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada oiladagi gender zo'rvonlikning ruhiyotga ta'siri, turlari va uni bartaraf etish omillari nazariy jihatdan yoritib berilgan. Shuningdek, zo'rvonlikning turlari, tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida fikr yuritilgan. Respublika "Oila" instituti tomonidan Namangan viloyatida o'tkazilgan tadqiqotlar tahlili ham keltirilgan.

Kalit so'zlar. Zo'rvonlik, gender tenglik, oila, gender zo'rvonlik, jinsiy zo'rvonlik, ruhiy zo'rvonlik.

Аннотация: В данной статье теоретически объясняется влияние гендерного насилия в семье на психику, его виды и факторы его устранения. Также обсуждались виды насилия, домогательств и защиты от насилия. Представлен анализ исследования, проведенного республиканским институтом «Семья» в Наманганской области.

Ключевые слова: Насилие, гендерное равенство, семья, гендерное насилие, сексуальное насилие, психологическое насилие.

Abstract: In this article, the impact of gender violence in the family on the psyche, its types and factors for its elimination are explained theoretically. Also, the types of violence, harassment and protection from violence were discussed. The analysis of the research conducted by the republican "Family" institute in Namangan region is also presented.

Keywords: Violence, gender equality, gender violence, sexual violence, psychological violence.

Oila bu mehr-muhabbat, tushunish, mas'uliyat, sabr, baxt, qayg'u, tashvish...

Sir emaski, har bir yurtning buguni va kelajagi tom ma'noda mamlakat ijtimoiy tuzilmasi bo'lmish oila, mahalla munosabatlarining qay darajada rivoj topgani bilan belgilanadi.

Ma'lumki, oila biz uchun eng qulay maskan, mustahkam qo'rg'on, muqaddas dargoh, Vatan ichra Vatan hisoblanadi. Jamiyatning muhim bo'g'ini bo'lgan oilalar qanchalik tinch va totuv bo'lsa, davlatimiz ham tinch va barqaror ravnaq topishi mumkin. Har birimiz oila qurar ekanmiz, oilamiz tinch, hayotimiz farovon bo'lishini istaymiz.

Buyuk mutafakkir Ar-Roziyning fikricha: “Ruh xastalansa- jism ham kasallikka chalinadi”. “Oilada ham jisman, ham puhan sog'lom avlodni shakllantirish uchun davlat tomonidan turli chora-tadbirlar ko'rilmoqda va yuqori darajada e'tibor berilmoqda, chunki ma'naviy, axloqiy, psixologik tarbiya avvalo oiladan boshlanadi. Oila tinch, mustahkam va farovon bo'lsagina, jamiyatda rivojlanish bo'ladi. Bu esa o'z navbatida, ma'naviy va ruhiy muhitning sog'lomligiga yetarli zamin yaratadi. Shuning uchun bizning yurtimizda oilani mustahkamlashga alohida e'tibor berib kelinmoqda.” (2.80) Oila tinch bo'lsa, ko'ngil xotirjam, ishlar barorli bo'ladi. Afsuski, bugungi kunda oiladagi **gender zo'ravonlik muammosi** juda jiddiy va dolzarb muammodir, ko'pchilik odamlar bu haqda sukut saqlashni afzal ko'rishadi. **Oila doirasidagi gender zo'ravonlik** - bu erkak kishi tomonidan turmush o'rtog'iga nisbatan amalga oshiradigan tajovuzkor jismoniy harakatlar, tahdidlar va psixologik hujumlardir. Keyingi vaqtlarda ijtimoiy tarmoqlarda tez - tez zo'ravonlik qurbonlari bo'lgan insonlar to'g'risidagi xabarlar tarqalmoqda. Buning asosiy sababi zo'ravonlik qurbonlarining bilimsizligi, o'zini xaq va xuquqini himoya qila olmasligida.

Zo'ravonlik– tajovuzning eng og'ir shakli, boshqa bir shaxsga (ko'pincha yaqin insonga, oila a'zosiga) qasddan zarar yetkazish maqsadida qilingan harakat: tan jarohati yetkazish, qo'rqitish, tazyiq o'tkazish, ruhiy ta'sir etish, yakkalab qo'yish, jinsiy zo'rlik, nayrang ishlatish, bolalarni ro'kach qilish, moddiy cheklovlar va hokazolar bilan ifodalanadi.

Zo'ravonlikning quyidagi turlarini ajratish mumkin:

- **jismoniy zo'ravonlik** – shaxsning hayoti, sog'lig'i, erkinligi va qonun bilan qo'riqlanadigan xuquq va qonuniy manfaatlariga qarshi jismoniy kuch ishlatish yoki uni qo'llash bilan qo'rqitish;
- **ruhiy zo'ravonlik** — xotin-qizlarni xaqoratlash, ularga tuxmat qilish, tahdid qilish, ularning sha'nini, qadr-qimmatini kamsitish, shuningdek, ularning xohish-irodasini cheklashga qaratilgan boshqa harakatlarda ifodalanadigan zo'ravonlik shakli, shu jumladan, tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchida o'z xavfsizligi uchun xavotir uyg'otgan, o'zini himoya qila olmaslikka olib kelgan yoki ruhiy sog'lig'iga zarar yetkazgan harakat (harakatsizlik).
- **jinsiy zo'ravonlik** – shaxsning or-nomusi va jinsiy erkinligiga qarshi uni jinsiy aloqa qilishga majburlash maqsadida unga tahdid qilish yoki uni qo'llash;

- **iqtisodiy zo'ravonlik** – turar joy, ovqat, kiyim-kechak va buyumlardan mahrum qilish orqali iqtisodiy nazorat o'rnatish, moddiy tomondan qaramlik xolatiga solish.

Tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish — xotin-qizlarning hayoti, sog'lig'i uchun paydo bo'lgan xavfni bartaraf etish, tezkor chora-tadbirlarni talab qiladigan hayotiy vaziyatlar yuz berganda xotin-qizlarning xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, jabrlanuvchiga nisbatan tazyiq o'tkazgan va zo'ravonlik sodir etgan shaxsning takroran g'ayriqonuniy xatti-harakatlariga yo'l qo'ymaslik maqsadidagi iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, tashkiliy psixologik va boshqa tushadigan kechiktirib bo'lmaydigan tadbirlar tizimi. Aslida bunga juda ko'p sabablar mavjud va ularning aksariyati insonga, uning tarbiyasiga ijtimoiy va axloqiy ta'sir ko'rsatishi sababli aniq o'ziga xosdir. Masalan, tamoyillar, turli xil tashqi omillar va unga ta'sir qilish. Ko'pincha bo'lajak er ota - onasidan oilaga xuddi shunday munosabatda bo'lib, qichqiriq va mushtlar yordamida nizolar va ularning yechimini kuzatib, nikoh haqida bir oz o'ziga xos noxush fikrni shakllantiradi. Shuningdek, oilada kuch bilan irodani tasdiqlash istagi bolalik davrida ruhiy shikastlanishning natijasi bo'lishi mumkin.

2021 yil yanvar oyida Respublika "Oila" ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan olingan loyiha asosida eng ko'p zo'ravonlik xolatlari qayd etilgan xududlarda (*jumladan, Namangan shahar, Kosonsoy, Pop, CHust, Namangan tumanlarida*) zo'ravonlik qurbonlari bilan ishlaydigan reabilitatsiya markazlari mutaxassislari, aholi va zo'ravonlik qurbonlari o'rtasida sotsiologik so'rovnomalari o'tkazildi. Reabilitatsiya markazlari mutaxassislari uchun berilgan "Markazga qaysi zo'ravonlik qurbonlarini qabul qilasiz?" degan savolga asosan jismoniy, psixologik, jinsiy zo'ravonlik qurbonlari bilan deb, "Qanday yordam ko'rsatasiz?" degan savolga psixologik, maslahat beramiz deb, "Markazda mutaxassislari yetarlimi" degan savolga "yo'q, yetishmaydi" deb javob berganlar. Ular mutaxassislari shtatlarini ko'paytirish, ularni malakasini oshirib borish, xorijiy tajribani o'rganish kabi takliflarni berdilar.

Aholi uchun o'tkazilgan so'rovnomalarda "Mamlakatimizda oiladagi zo'ravonlik muammosi bormi?" degan savolga "ha, albatta" deb, "Oilada kim ko'proq oilaviy zo'ravonlikka uchraydi?" degan savolga "ayollar va bolalar" deb, "Oiladagi zo'ravonlikning asosiy sabablari nimada?" degan savolga "ishsizlik, ta'lim va madaniyatning past darajasi, bolalikdan o'z oilasida zo'ravonlikni ko'rganligi, moddiy muammolar" deb, "YAqinlaringizni qaysi harakatlarini oilaviy zo'ravonlik deb bilasiz?" degan savolga, "xaqorot qilishi, kamsitishi, baqirishi, biror narsani qilishni ta'qiqlashi, bolalarni jazolashi, ma'naviy ezishi", deb javob berganlar.

"Oilada zo'ravonlik qilinishi kerakmi?" degan savolga "mumkin emas" deb, "Oilangizda oila a'zolari o'rtasida urush-janjallar bo'lib turadimi?" degan savolga ko'pchilik "bir yilda bir necha marta" deb, "Oilaviy zo'ravonlikni oldini olish uchun qanday choralar samarali bo'lishi mumkin?" degan savolga ko'pchilik fuqarolar profilaktik oilaviy suhbatlar, reabilitatsiya markazlarida zo'ravonlik qurbonlari uchun boshpana tashkil etish, ishonch telefonlari, psixologik yordam xizmatlari ishlashi kerak, deb javob berganlar.

O'tkazilgan so'rovnomalardan shunday xulosaga kelish mumkinki, surunkali ravishda oiladagi zo'ravonlikka duchor bo'lgan odamning xatti-harakatlari va fe'l-atvori sezilarli darajada o'zgaradi. U qo'rquv, nosog'lom uyatchanlik va maxfiylikka aylanadi. Bundan tashqari, bunday xatti-harakatlar modellari oxir-oqibat nafaqat uyda "zolim" ishtirokida, balki har qanday sharoitda namoyon bo'ladi va uning salbiy ta'siri oxir oqibat suitsidal (o'zini joniga qasd qilish) harakatlariga olib kelishi mumkin. Keyingi paytlarda ijtimoiy tarmoqlarda zo'ravonlik qurbonlari haqida juda ko'p shov-shuvli voqealar juda ko'p keltirilmoqda. Mana bir misol: Toshkent shahridan yaqin masofada joylashgan Zangiota aholi yashash punktida ayolning eri undan ajrashib ketmasligi uchun uni kishanlarga bog'lab qo'ygan. Yaxshiyamki, ayolning qarindoshlari uni qutqarishdi. Erga nisbatan esa jinoyat ishi qo'zg'atildi. Yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda bir ayolning o'zini va 3 nafar farzandlarini 9-qavatdan tashlagani qancha muhokamalarga sabab bo'ldi. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Oiladagi ruhiy zo'ravonlik shakllari haqida gap ketganda, ular hech qachon jabrlanuvchiga nisbatan faqat jismoniy harakatlar bilan zo'ravonlik qilmasdan, balki psixologik tomondan kamsitish, izza qilish, boshqalarni oldida mensimasdan muomala qilish, jabrlanuvchiga gapirishga imkon bermaslik, yaqin qarindoshlari bilan munosabatda bo'lishga ruxsat bermaslik kabi holatlarga yo'l qo'yadilar. "Oilada bolalarga nisbatan ham zo'ravonlikxolatlariuchraydi. Jumladan, bolalarga nisbatan bo'ladigan shafqatsizlik, ya'niota-onalar,tarbiyachilar yoki boshqa shaxslar tomonidan bolaning jismoniy v apsixik rivojiga zarar yetkazadigan xatti-harakatlar. *Uning bir necha turi farqlanadi:* jismoniy kuchishlatish, jismoniy zarar yetkazish, tan jazosi, bolalarni alkogol ichimliklar va narkotik moddalarni iste'mol qilishga jalb etish. Jinsiy kuch ishlatish-bolalardan kattalarning shaxvoni ehtiyojlarini qondirishda foydalanish, daromad olish maqsadida bolalarni fohishalik mashg'ulotlariga jalb qilish. Psixik kuch ishlatish – bolaga nisbatan muhabbat va e'tiborning yo'qligi, uning insoniy g'urur itoptalishi, unga nisbatan qo'pollik, so'z bilan xaqoratlash. Bolaning asosiy ehtiyojlariga be'tiborlilik, ularni pisand qilmaslik – bolaning normal hayot kechirishi uchun shart-sharoitlarning, unings og'ligi va rivojlanishi uchun g'amxo'rlikning yo'qligi." (1.39)

Demak, zo'ravonlik holatlariga hech kim befarq bo'lmasligi kerak. Agar biz har bir shaxsni huquqiy jihatdan qurollantia olsak, zo'ravonlikni yo'qotishga erishamiz.

Gender zo'ravonlik qurboni bo'lib qolishning oldini olish uchun quyidagi xolatlarga e'tibor berish maqsadga muvofiq:

- Oilada psixologik iqlimni yashilash, buning uchun ota-onada muomala madaniyati shakllangan bo'lishi;
- farzandlarga yoshligidan jinsiy tarbiya berish;
- balog'atga yetayotgan davrda ya'ni o'smirlik davdidagi bolalarga oila etikasi, oila psixologiyasi, oila xuquqi, reproduktiv salomatlik to'g'risida bilim berish;

- ta'lim muassasalarida o'smir yoshidagi yigit-qizlarga jinsiy, iqtisodiy, psixologik, jismoniy zo'ravonlik haqida tushunchalar berish;
- shaxslar zo'ravonlik xolatlariga duch kelganda qaysi tashkilotga murojaat qilish lozimligini tushuntirish;
- yoshlarni oilaviy hayotga tayyoqlashda to'g'ri, real, to'laqonli tasavvur shakllantirib borish; oilaviy hayotda ozmi-ko'pmi, ammo muqarrar uchraydigan muammo va qiyinchiliklar haqida ma'lumot berish;
- yoshlarga oilaviy hayot nizosiz bo'lmasligini anglatib, oilani saqlash va mustahkamlash malakalarini shakllantirish. Qaynona-kelin nizolarini oldini olishga kuyovlarni tayyorlash;
- nizoli, muammoli oilalardagi psixologik muhitni sog'lomlashtirishda mahalla faollaridan foydalanish;
- oilalarda ijobiy psixologik iqlim va shaxslararo munosabatlar o'rnatilishi;
- har bir soha, ayniqsa psixologiya yo'nalishida malakali mutaxassislar bilan maslahatlashib ish ko'rish maqsadga muvofiq;
- mahalliy aholining ijtimoiy va etnopsixologik xususiyatlarini hisobga olib borish;
- xududlarda ajralish, zo'ravonlik, oilada sodir bo'ladigan jinoyatchilik, suitsid kabi noxush xolatlarning oldini olish va ularni kamaytirishga qaratilgan tadbirlarni o'tkazish.

Yuqoridagi salbiy xolatlarni keltirib chiqaradigan ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik omil va sabablarni bartaraf etish zarur.

Adabiyotlar:

1. Oila ensiklopediyasi. F.Akramova va boshqalar."O'zbekiston milliy nashriyoti ensiklopediyasi". Davlat ilmiy nashriyoti. T. 2019 yil. 39-bet.
2. Maxsudova M. Zamonaviy namunali oila modelini yaratishda ijtimoiy-psixologik muhitni yaxshilash omillar. "Sog'lom va farovon oilani rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-demografik muammolari." Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Andijon. 2019 yil. 80-bet.